



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 344 sahifa,
16-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Tinglovchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari	10
<i>Fazliddin Abdunabiyevich Abdurazaqov</i>	
Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish yo'llari	15
<i>Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li</i>	
Orfografik kompetensiyaning mohiyati va boshlang'ich sinflarda shakllanish bosqichlari	21
<i>Abduvaliyeva Nodira Alisherovna, Mo'minjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda uch o'lchamli vizualizatsiyalarning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati	25
<i>Nabijonova Feruza Valijon qizi</i>	
Loyiha texnologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish mazmuni	28
<i>O'rinova Nilufar Muxammadovna</i>	
Sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodikasi	32
<i>Qilichova Billura Yorqinxuja qizi, Homidov H. K.</i>	
Kasbiy-kommunikativ madaniyat fenomenining pedagogik talqini va rivojlanish tendensiyalari	37
<i>Tashpulatova Nodira Olimjon qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv	41
<i>Umbarova Nasiba Xolboy qizi</i>	
Xorijiy tillarni o'rganishda shaxs nutqining shakllanishida psixolingvistikaning ahamiyati	44
<i>Ahmedov Shavkat Asadilloevich, Ataboev Navruz Ilhombek o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi (PIRLS dasturi misolida)	47
<i>Abduraxmanova Charos Burxanovna</i>	
Lesson Planning in English Language Teaching at Technical Universities	51
<i>Aitbaeva Nursuliu Tairbekovna</i>	
Lingvistik intellekt asosida individual o'qitish yondashuvining samaradorligi	55
<i>Allanazarova Sadoqat Azimovna</i>	
Xorij tadqiqotlarida zamonaviy oila transformatsiyasida farzandlar taraqqiyotining ijtimoiy-psixologik asoslari	59
<i>Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna</i>	
Теоретико-методологические подходы к изучению эмоциональных концептов в литературе: (на материале английских и немецких фразеологизмов)	63
<i>Сайёра Улашевна Тагаева, Азиза Анкаевна Уразкулова</i>	
The Importance of Forming a Schedule for High School Students	67
<i>D. T. Atabayeva, X. I. Abduraymova</i>	
Milliy cholg'u ansambllari orqali o'quvchilar musiqiy dunyoqarashini shakllantirish	70
<i>Dadamirzayeva Gulshanoy To'lanjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga yondashuvning texnologik xususiyatlari ...	75
<i>Jumanov Sherzod Saloyevich</i>	
Adabiyot darsliklari uchun yangi o'zbek adabiyoti namunalarini saralashning ilmiy-metodik asoslari	78
<i>Musaboyeva Zulfira Iqboljon qizi</i>	
Maktab geometriyasida ko'pyoqlilar mavzusini o'rganishning innovatsion usullari	83
<i>Pirlepesov Umrbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Generativ AI vositalarining mustaqil ta'lim jarayonidagi didaktik funksiyalari	86
<i>Qahramonova Xumora Qahramonovna</i>	
O'quvchi-sportchilar uchun individual mashg'ulot yuklamalarini avtomatik rejalashtirish va optimallashtirish imkoniyatini yaratish ahamiyati	91
<i>Qosimov Faxriddin Jo'raqulovich</i>	



Когнитивный диссонанс как социально-психологический феномен в контексте высшего образования: теоретический анализ	95
Мансурова Гульмира Рафазловна	
Регуляторный произвол или необходимый порядок? Влияние новых регуляторных механизмов на свободу расследовательской журналистики	101
Рауфова Озода	
Qizlar tarbiyasida mahalla–oila–maktab hamkorligi mexanizmlari	105
Choriyeva Dildora Ismat qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirishning samaradorligi: kompetensiyaviy yondashuv asosida	109
Tangriyev Abdulkarim Tovashevich	
O'qish savodxonligi darslarida matn bilan ishlash orqali o'quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi.....	114
Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi	
Raqamli transformatsiya sharoitida STEAM ta'limi orqali talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish	120
Kozimova Mehriniso Akbarali qizi	
Oliy ta'limda kvest texnologiyasi yordamida fizika fanining murakkab tushunchalarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish metodikasi.....	125
O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish texnologiyalari va ularning amaliy qo'llanilishi	129
Sharipov Nodir Botir o'g'li	
Management of Medical Emergencies in Outpatient Dental Clinics.....	133
Adurazzoqov Kamoliddin, Umarov Maruf, Buzrukhoda Javohir	
Psixologik farovonlikning asosiy komponentlari, ta'sir qiluvchi omillar va zamonaviy baholash usullari	138
Aliyev Samariddin Murotali o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	142
Boymurodova Sadoqat Istam qizi	
O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi.....	146
Gadoymurodova Kamola Sunnatulloevna	
Oilada bola tarbiyasining ahamiyati va uning shaxs kamolotiga ta'siri	151
Galdiyeva Mehribon Durdiyevna, Oilimova Mushtariy Xaydarali qizi	
Art-pedagogika vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik dunyoqarashni shakllantirishning pedagogik ahamiyati	154
Gulboyev Akbar Tuxtyayevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy tadbirlar orqali vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish	158
Homidov Husniddin Kupaysinovich, Yusupova Gulzor Yunusjon qizi, Norbekova Sevinch Musurmon qizi	
Bone-Grafting Materials in Oral Surgery: Classification, Biological Properties, and Clinical Application	161
Jumaqulova Mashhura Alishevovna, Buzrukhoda Javohir Davronovich	
Mediatsiya va o'qib tushunish kompetensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik	166
Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi	
Using STEM Technologies to Foster Rational Thinking in the Dentistry	169
Khonimqulov Javlon, Burkhonova Zarafuz	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini montessori metodikasi vositasida til o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish usullari modeli.....	173
Mahbuba Yusupova Rustam qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyalarni integrativ yondashuv asosida shakllantirish metodikasining samaradorligi.....	177
Nasimova N. Q.	
Analysis of Scanning Techniques Used in Orthodontic Dentistry	182
Nasrullayev Javlonbek Ta'atonovich, Rahimberdiyev Rustam Abdunosirovich	
Zamonaviylik - ta'lim konsepsiyasida asosiy mezon sifatida	187
Ochilova Gulnoza Odilovna	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	O'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish metodikasi 191 Qahhorova Sojida Bahodir qizi, Zokirov Javoxir G'aybullo o'g'li	191
	Diqqat va xotira jarayonlarida raqamli texnologiyalarning roli 196 Salomova Nargiza Sattorovna	196
	Talabalarda kasbiy refleksiya rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarning empirik tahlili..... 200 Shukurova Nargiza Ikramovna	200
	Gimnastikachi qizlarda egiluvchanlik jismoniy sifatini rivojlantirish jarayonida shikastlanishlarning oldini olish 205 Sultanova Musharafxon Xudoyqul qizi	205
	Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ekologik bilimlarni raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirish... 210 Sayfetdinova Dildora Ikramitdinovna	210
	Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va yo'nalishlari 216 Uralova Nurxon Maxadovna	216
	Naqshbandiya qadriyatlarini bo'lg'usi o'qituvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rni..... 220 Xalmuxamedova Maxbuba Aslanovna	220
	Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari 223 Xo'jamberdiyeva Maftuna Norqobilovna, Sanaqulova Sevinch Baxtiyor qizi	223
	Developing Logical Thinking via the Use of STEM Technology 226 Yarmuhammedov Nabijon Navruzovich, Burkhonova Zarafuz	226
	Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati 229 Yo'ldoshboyeva Zulfiya Ravshan qizi, Jumayev Abdilxakim Turdiyevich	229
	Значение предмета физического воспитания и спортивной метрологии в физическом воспитании молодежи 233 Маматкулов Равшанжон Солижонович	233
	Аксиологические аспекты диалога культур в романе Сухбата Афлатуни "Рай Земной" 237 Чернова Татьяна Алексеевна, Худойназаров Сардорбек	237
	Maktab boshqaruvida ilmiy asoslangan yondashuvlarni joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari..... 240 Akbutayeva Gulasal Uzoq qizi	240
	Features of Verbal and Non-Verbal Communication in Teaching Foreign Languages in Higher Education Institutions 248 Gulnoza Aslamovna Azimkulova	248
	Chaenomeles Japonica (Thunb.) Lindl. Ex Spach mevalaridan ajratib olingan polifenol va pektin komplekslarining ichak mikrobiotasi, oksidlovchi stress va immun javobga ta'sirini molekulyar-biologik usullar asosida tadqiq etish 251 Ergasheva Nigora G'ayratovna	251
	Contemporary Linguodidactic Trends in Teaching English in Higher Education 259 Khudoyarova Ziyoda Maratovna	259
	Yuqori sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning muammo va imkoniyatlari..... 264 Layloxon Xabibullayeva Tursunali qizi	264
	Raqamli sport pedagogikasi va bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish omillari..... 269 Matvapayev Azizbek Gaibnazar o'g'li	269
	Sun'iy intellektga qaramlik: raqamli addiksiya evolyutsiyasining yangi bosqichi 273 Mo'minxo'jayeva Zuhra Alimjon qizi	273
	Linguo-Cognitive Modeling of The Relationship Between Life and Death In Literary Texts: a Comparative Analysis (Based on 20 th -Century English and Karakalpak Works)..... 279 Najimova Perizad Arslanbay qizi	279
	Talabalar intellektual qobiliyatini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari 283 Shodiyeva Charos Ravshan qizi	283
	Ta'limiy o'yinlar vositasida ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalashga qaratilgan mashg'ulotlarining asosiy bosqichlari 286 Xaytova Farida Kuchkarovna	286



Raqamli va an'anaviy o'qish: qiyosiy tahlil.....	292
<i>Mashrapova Sevara Xabibovna</i>	
Mustahkam oila qadriyatlari va ularning zamonaviy jamiyat rivojiga ta'siri.....	296
<i>Soyibova Bonu O'tkir qizi</i>	
Sog'lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik mohiyati	301
<i>Xoliqov Farxod Karomatillo o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar: sun'iy intellekt vositalaridan oqilona foydalanish metodikasi...	305
<i>Aminov Shavkatjon Sobir o'g'li, Abdusattarova Muhlisaxon Foziljon qizi, Berdiyaroova Jasmena Sherzodjon qizi</i>	
Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi dzyudochilarda koordinatsion qobiliyatlarni shakllantirishning samarali vositalari	311
<i>Jumanova Iroda Shokirjon qizi</i>	
Mediatsiya va o'qib tushunish kompEtensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik.....	315
<i>Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi</i>	
Xorijiy tillarda yozma ish turlarini o'rganishning o'ziga xos jihatlari	319
<i>Omonova Sarvinoz</i>	
Can Duolingo Reduce Speaking Anxiety: A Literature-Based Analysis	322
<i>Qodirqulova Ra'no</i>	
Kommunikativ yondashuv asosida o'quvchilarning chet tilida muloqot qilish ko'nikmalarini takomillashtirish	326
<i>Sa'dullayeva Shahzoda Nuriddin qizi</i>	
Zamonaviy psixologning kasbiy kompetensiyasi: krizisli vaziyatlarda ishlash texnologiyalari.....	330
<i>Shirinov Otabek Tuvlovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va yo'nalishlari	333
<i>Uralova Nurxon Maxadovna</i>	
Иммерсивные технологии в обучении русскому языку как иностранному: современные подходы и перспективы	337
<i>Абдусаламова Адига Каримджановна</i>	
Инновационная методика интенсивного обучения студентов филологического направления русскому языку в сопоставлении с узбекским языком	340
<i>Касимов А. Б.</i>	



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHIDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, IMKONIYATLARI VA YO'NALISHLARI

Uralova Nurxon Maxadovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini
qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanish orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan didaktik jarayonlar natijasida shakllanadigan maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining xususiyatlari, natijalarga erishish imkoniyatlari hamda asosiy yo'nalishlarining mazmuni yoritilgan.

Kalit so'zlar: shaxsga yo'naltirilgan texnologiya, shaxsning ehtiyojlari, kognitiv axborotlar, o'zlik tuyg'usi, shaxsiy nuqtai nazarlar, muloqot va munosabatlar madaniyati, bola-pedagog hamkorligi, bola-bola hamkorligi, kasbiy mahorat, salohiyat, pedagogik-psixologik muhit, obyektiv baholash.

Abstract: This article highlights the developmental characteristics of preschool children, the possibilities of achieving educational outcomes, and the content of the main directions formed as a result of didactic processes carried out in preschool educational organizations through the use of personality-oriented technologies.

Key words: personality-oriented technology, individual needs, cognitive information, self-awareness, personal perspectives, culture of communication and relationships, child-teacher cooperation, child-child cooperation, professional skills, potential, pedagogical and psychological environment, objective assessment.

Аннотация: В данной статье раскрываются особенности развития дошкольников, возможности достижения результатов и содержание основных направлений, формирующихся в результате дидактических процессов, осуществляемых в дошкольных образовательных организациях с использованием личностно-ориентированных технологий.

Ключевые слова: личностно-ориентированная технология, индивидуальные потребности, познавательная информация, самосознание, личностные перспективы, культура общения и взаимоотношений, детско-педагогическое сотрудничество, детско-детское сотрудничество, профессиональные навыки, потенциал, педагогико-психологическая среда, объективная оценка.

KIRISH

Dunyo miqyosida maktabgacha ta'lim va tarbiyaning innovatsion modellarini ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish, pedagog-tarbiyachilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, tarbiyalanuvchilarning intellektual, estetik va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar alohida ahamiyatga molikdir. Shu jihatdan maktabgacha ta'lim-tarbiyada uning mazmuni, usullari va vositalarini innovatsion rivojlantirish maqsadida variativ yondashuv asosida dasturlar va kreativ texnologiyalarni ishlab chiqish, pedagog-tarbiyachilarning ijodkorlik va texnologik kompetentligini takomillashtirish zaruriyatini izohlaydi.

Dunyo ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanish, tahsil oluvchilarning noyob iqtidorini namoyon etishlariga ko'maklashish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bolalarni shaxs va subyekt sifa-

tida shakllantirish, ularning aqliy, ruhiy rivojlanishi, ma'naviy-axloqiy, estetik va jismoniy tarbiyalanishiga doir masalalarni hal etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish jarayoniga oid shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni joriy etish ijtimoiy zarurat hisoblanadi. Bu ko'rsatma va ma'lumotlarni amalda qo'llash bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari muammolari bilan shug'ullanuvchi barcha pedagog-tarbiyachilar uchun nihoyatda muhim va dolzarb vazifadir. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablarining asosiy maqsadi kelajak avlodni jismonan va ruhan sog'lom tarbiyalashdan iborat. Maktabgacha tayyorgarlik tushunchasi bolaning aqliy va maxsus tayyorgarlik yo'nalishlarini o'z ichiga oladi.

Avvalo, jismoniy tayyorgarlik deganda, kichkintoyning o'ziga mos milliy o'yinlar qoidalarini bilishi, ularda faol ishtirok etishi hamda belgilangan topshiriqlarni bajara olishi tushuniladi. O'quv mashg'ulotlarida foydalaniladigan didaktik o'yinli texnologiyalar tarbiyalanuvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirishga undaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi didaktik jarayonlarda shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanish samaradorligi o'zining ko'p qirraliligi bilan namoyon bo'lmoqda. Bu holat "Tarbiyalanuvchining ruhiy holatlari, uning kelajakdagi rivojlanishi (yoki pasayishi) qanday hisobga olinmoqda?" degan savolning yechimiga bog'liq. Bu jarayon pedagogning ta'lim texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatiga bog'liq holda tashkil etiladi. Shu bois o'quv materiallarining tarbiyalanuvchilar tomonidan qabul qilinishi va o'zlashtirilish samaradorligi o'rganildi. Buning uchun turli didaktik o'yinli ta'lim texnologiyalari tahlil qilinib, ularning mashg'ulotlar davridagi samarasi kuzatildi. Ushbu texnologiyalarni bola faoliyatiga ongli ravishda yo'naltirish, biror faoliyatni buyruq asosida emas, balki samarali tashkil etish orqali tarbiyalanuvchilarda o'quv mashg'ulotlari asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, shaxsning ehtiyoji, qiziqishi va imkoniyatlarini cheklemasdan, unga erkin tanlash huquqini berishga alohida e'tibor qaratildi. Bunday mashg'ulotlarni tashkil etishda tarbiyalanuvchining to'liq bilim olishi, uning qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etdi. Natijada didaktik o'yinli texnologiyalar tarbiyalanuvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, mashg'ulot topshiriqlarini mustaqil ravishda bajarish, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish, o'yin davomida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etishda to'g'ri yo'l tutish, turli vaziyatlarni tahlil qilish va to'g'ri xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qildi. Shunday qilib, shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni amaliyotda qo'llash uchun o'ziga xos vositalar zarur bo'ladi. Har bir shaxsga yo'naltirilgan texnologiyada qo'llaniladigan vositalar o'xshash bo'lsa-da, ularning turlari ko'p. Ularni shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin: verbal, noverbal, vizual, tabiiy vositalar, o'quv anjomlari hamda maktab jihozlari. Verbal vositalarning asosini axborot tashkil etadi. Bular so'zlar bilan ifodalanadigan axborotlar bo'lib, ularni so'z orqali ifodalash uchun tarbiyachi ushbu axborotni o'zlashtirgan, ya'ni u haqida yetarli bilimga ega bo'lishi kerak. Boshqacha aytganda, texnologiyalarning verbal vositalari tarbiyachining bilim darajasidagi axborot hisoblanadi. Shu sababli hozirgi ta'lim jarayonida faqat pedagog va bolalarning ishtirok etishi yetarli bo'lmay qoldi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni takomillashtirishga oid ta'lim nazariyasi va amaliyoti bo'yicha hamdo'stlik hamda xorijiy mamlakatlar olimlarining tadqiqot ishlari tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy-metodik asoslari, pedagogik shart-sharoitlari, zamonaviy pedagogga qo'yiladigan talablar va ta'lim jarayoni sifatini takomillashtirish bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Masalan, MDH olimi O.Yu. Malaxovaning tadqiqotida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish masalalari o'z ifodasini topgan.

Tadqiqotchi maktabgacha ta'lim tizimida rahbar xodimlar faoliyatini baholash, ta'lim sifati, uni baholash va sifat menejmentiga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlarni tahlil qiladi hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya sifatini ichki baholash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy g'oyalarni ilgari suradi. Sh.A. Amonashvilining "Pedagogik simfoniya", V.V. Serikovaning "Ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar: konsepsiya va texnologiyalar", I.S. Yakimanskayaning "Zamonaviy maktabda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim" kabi asarlarida tahsil oluvchilarni shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar asosida o'qitish va tarbiyalash masalalari yoritilgan. Mualliflar ushbu yondashuv va texnologiyalar tahsil oluvchilarni axloqan va ma'nan yetuk, komil insonlar etib tarbiyalashga xizmat qilishini ta'kidlaydilar.

Ye.A. Vinogradova maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarning ijtimoiylashuvi hamda pedagog kadrlarning malakasini oshirish jarayonlarini takomillashtirish masalalarini tadqiq etadi. U bolalarning jismoniy va psixik sog'lig'ini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladigan didaktik mashg'ulotlar sifatini oshirish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratadi. Demak, o'qitish jarayoni bolaning individual rivojlanishini tezlashtiradi. Shu bilan birga, u bolaning umumiy va individual rivojlanish qonuniyatlariga ham bog'liqdir. O'qish umumiy va individual anglash shakllarini yaqinlashtiradi, individual faoliyatni umumiy anglash tizimiga



integratsiyalaydi hamda bolaning shaxsiy tajribasi bilan ta'lim jarayonida shakllangan tushunchalar o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Koreys olimi Vi Nam Sopning tadqiqotida olti-yetti yoshgacha bo'lgan bolalar bilan oilada hamda davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan musiqiy mashg'ulotlarni tashkil etish masalalari yoritilgan. Bugungi kunda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni ijodiy yondashuv asosida amaliyotga joriy etish, zamon talablariga mos me'yoriy hujjatlar, o'quv-metodik adabiyotlar va o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari va mutaxassislarida zamonaviy menejment hamda pedagogik texnologiyalar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida didaktik jarayonlarda bolaning rivojlanishini ta'minlovchi shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni takomillashtirishga doir ilmiy manbalarni tahlil etish, o'quv-me'yoriy hujjatlar, darslik va o'quv-metodik adabiyotlarni tanqidiy hamda qiyosiy o'rganish, pedagogik kuzatuv, suhbat, test, anketa so'rovnomalari, pedagogik tajriba-sinov natijalarini matematik-statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi didaktik jarayonlarda bolaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishini ta'minlovchi shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni takomillashtirishga yo'naltirilgan tajriba natijalari tahlil etildi. Bolalarning didaktik jarayonlardagi o'quv-biluv faoliyatidagi yutuqlari pedagogik diagnostika metodlaridan foydalanilgan holda tahlil qilindi. Bunda bolalarning nafaqat bilimlari aniqlanib qolmasdan, balki natijalarning aniq sabablari ham ko'rsatildi. Ya'ni, bolalar bilimi bilan bog'liq bir qator omillar ham o'rganilib, ularning bola bilimiga ta'siri tahlil qilindi. Natijalar bolaning qaysi hududda yashashi, maktabgacha ta'lim tashkilotining qayerda (qishloq yoki shaharda) joylashganligi hamda bolaning jinsi (o'g'il yoki qiz bola) bilan bevosita bog'liqligi ko'rsatildi. Shuningdek, natijalar bolaning oilasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar bilan bog'liq bo'lganida ham o'z aksini topdi.

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar asosidagi didaktik jarayonni tashkil etishga xizmat qiladigan uslublar quyidagi xususiyatlarga ega:

- bolalar birgalikda, umumiy topshiriq yoki o'rgatilayotgan faoliyat ustida mustaqil va erkin hamkorlikda ishlash imkoniyatiga ega bo'ladilar;
- juftlikda va guruhli ishlar yordamida bolalarning yangi bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatlari kengayadi;
- bolalar hamkorlikda o'quv topshiriqlarining yechimini izlash, bilimlarni o'zlashtirishga asoslangan faoliyatni amalga oshiradilar, guruh jamoasi tomonidan qabul qilingan tartib-qoidalarga rioya qiladilar;
- ma'lum bir vazifani bajarish yoki muammoning yechimini izlashga oid faoliyatni tashkil etadilar va bolalarning hamkorlikda ishlashlari uchun sharoit yaratiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar asosidagi didaktik jarayon quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

- bolalarda yangi bilimlarni o'zlashtirish ko'lamini kengayadi; o'zlashtirilgan kognitiv axborotlar to'plami yaratiladi va bolaning ijtimoiylashuviga xizmat qiladi;
- bolalarda o'zlik tuyg'usining faollashuvi natijasida o'quv materiallarini o'rganishga bo'lgan ishtiyoq kuchayadi;
- bolalarning o'z shaxsiy nuqtai nazarlari va dunyoqarashlarini shakllantirish imkoniyatlari kengayadi;
- shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar asosidagi faoliyat bolalarda o'zaro do'stlik, o'rtoqlik, bir-biriga ko'maklashish va hamdardlik muhitini vujudga keltiradi;
- bolalar orasida yangicha muomala, muloqot va munosabatlar madaniyati tarkib topadi.

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning asosiy yo'nalishlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- bola shaxsini har tomonlama o'rganish, uning imkoniyatlarini tahlil etish va baholash;
- bolalar shaxsiga insonparvar yondashish orqali ularning erkinliklari va huquqlarini hurmat qilish;
- guruhda o'zaro hamkorlikka asoslangan do'stona muhitni shakllantirish;

- bola-pedagog va bola-bola hamkorligini tarkib toptirish; pedagogning kasbiy mahorati, intellektual, ma'naviy-madaniy salohiyatini rivojlantirish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida ko'tarinki hissiy holat hamda pedagogik-psixologik muhitni vujudga keltirish;
- bolalar bilimini hamkorlikda baholash va ularni birgalikda rag'batlantirishning erkin tizimini yaratish.

Ta'lim-tarbiya jarayonida kafolatlangan natijaga erishilganligini aniqlash uchun pedagog ta'lim natijasi sifatini obyektiv baholash imkoniyatiga ega bo'lishi lozimligi inobatga olindi. Bolaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishini ta'minlovchi shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni takomillashtirish uchun yillik va haftalik reja asosida har bir o'quv mavzusi bo'yicha aniq maqsadlarni muayyan izchillikda belgilash zarur. Har bir tarbiyachi o'z faoliyati jarayonida o'quv maqsadlarini aniq farqlay olishi kerak. Chunki mazkur o'quv maqsadlari yordamida tarbiyachi mashg'ulotlarda hamkorlik muhitini vujudga keltiradi. Bunday qilib, bolaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishini ta'minlovchi shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni takomillashtirish natijasida tarbiyalanuvchilarning didaktik mashg'ulotlarni o'zlashtirganlik darajalarini har tomonlama tashxislash, ularning intellektual rivojlanishi hamda hamkorlikka kirishuvchanliklarini baholashga zamin yaratildi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi didaktik jarayonlarda "subyekt-subyekt" munosabatlarini shaxsga yo'naltirish uchun tarbiyachi tarbiyalanuvchi uchun ma'lum bo'lgan tushunchalarga asoslangan holda yangi axborotlarni tushuntirib beradi. Bu jarayonda tarbiyalanuvchilar diqqatni jamlash, tinglash, eshitish, anglash, idrok qilish, mantiqiy fikrlash, xotirada saqlash va qayta eslash faoliyatlari bilan band bo'ladilar. Bunda tarbiyalanuvchining qiziqishi, ehtiyoji, manfaatdorligi, qobiliyati, iste'dodi va iqtidori uning muvaffaqiyati asosi bo'ladi. Ikkinchi guruh esa yangilikni kiritishga oid yondashuv bilan bog'liq omillarni qamrab oladi: yangilik kiritishning rejalashtirilganligi va bosqichma-bosqichlikka amal qilinganligi. Uchinchi guruh ijtimoiy-psixologik omillar bo'lib, uning tarkibiga yangilikka pedagogik jamoaning munosabati, rahbarlik uslubi va boshqa omillar kiradi. Har qanday yangilikning kiritilishi, shu jumladan, shaxsga yo'naltirilgan texnologiyaning joriy qilinishi va zaruriy samara berishi pedagogik jamoa a'zolarining yangilikni qanday qabul qilishi hamda unga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi didaktik jarayonlarda "subyekt-subyekt" munosabatlarini shaxsga yo'naltirishda o'yin texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ushbu mashg'ulotlarda bolalarning bilim olish jarayoni faollashtiriladi. Ularning samaradorligi haqida fikr yuritilganda, didaktik jarayonning maqsadli yo'naltirilganligi ham nazarda tutiladi. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar bolalar faolligining yuqori darajasini ta'minlash asosida oldindan belgilangan maqsadga erishishga qaratiladi.

XULOSA

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi didaktik jarayonlarda bolaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishini ta'minlovchi shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni takomillashtirish masalasi dolzarb ijtimoiy-pedagogik hodisadir. Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkilotidagi didaktik jarayonlarda bolaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishini ta'minlovchi shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni takomillashtirish zaruriy ehtiyoj ekanligi hamda tavsiya etilgan metodikalarning samarali ekanligi tadqiqot natijalari asosida o'z tasdig'ini topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-sonli qarori bilan tasdiqlangan Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standart. – T., 2020. <https://lex.uz/docs/-5179335>
2. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturi. – T., 2022.
3. O'zbekiston Respublikasi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro bolalar jamg'armasi (YUNISEF) hamkorligida ishlab chiqilgan "Har xil yoshdagi muqobil guruhdagi pedagogik yondashuvlar". – T., 2021.
4. Сериков В.В. Проблема взаимосвязи когнитивного и личностного развития ребенка в целостном педагогическом процессе // Целостный учебно-воспитательный процесс: исследование продолжается: материалы методологического семинара памяти проф. В.С. Ильина. – Волгоград: Изд-во ВГПУ "Перемена", 2007. – Вып. 8. – С. 25-31.
5. Якиманская И.С. Личностно-ориентированное обучение в современной школе. – Москва: Сентябрь, 2000. – 112 с.
6. Амонашвили Ш.А. Личностно-гуманная основа педагогического процесса. – Москва: Университет, 1990. – 560 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.